PEDAGOGIK METODLARNI UYG‘UNLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Xidirova M.Q., GDPI dotsent
xidirovamalohat848@gmail.com,
Jonzoqova S.A.,GulDU O‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik metodlarni uyg‘unlashtirish jarayonida innovatsion yondashuvlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan. Ta’lim jarayonida samaradorlikni oshirish, o‘quvchilarning faolligini ta’minlash hamda fanni chuqur o‘zlashtirishga erishish uchun turli pedagogik metodlarni o‘zaro uyg‘unlashtirib qo‘llashning samarali jihatlari

tahlil qilinadi. Shuningdek, innovatsion yondashuvlarning mazmuni, turlari va ularning dars jarayonidagi qo‘llanilishiga oid misollar keltirilgan. Maqola ta’limda metodlar integratsiyasi orqali yangi pedagogik imkoniyatlar yaratishning nazariy va amaliy asoslariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: pedagogik metod, uyg‘unlashtirish, innovatsion yondashuv, integratsiya, o‘qitish samaradorligi, ta’lim texnologiyalari.

Аннотация: В данной статье освещается значение использования инновационных подходов в процессе гармонизации педагогических методов. Анализируются эффективные аспекты совместного применения различных педагогических методов для повышения эффективности образовательного процесса, обеспечения активности учащихся и достижения глубокого овладения наукой. Также приведены примеры содержания, видов инновационных подходов и их применения в процессе урока. Статья посвящена теоретическим и практическим основам создания новых педагогических возможностей посредством интеграции методов в образовании.

Ключевые слова: педагогический метод, гармонизация, инновационный подход, интеграция, эффективность обучения, образовательные технологии.

Abstract: This article highlights the importance of using innovative approaches in the process of harmonizing pedagogical methods. The effective aspects of using various pedagogical methods in harmony with each other are analyzed to increase efficiency in the educational process, ensure student activity, and achieve in-depth mastery of the subject. The content, types of innovative approaches, and examples of their application in the teaching process are also presented. The article is devoted to the theoretical and practical foundations of creating new pedagogical opportunities through the integration of methods in education.

Keywords: pedagogical method, harmonization, innovative approach, integration, teaching effectiveness, educational technologies.

Bugungi kunda ta’lim tizimining oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri o‘quv jarayonini yuqori samaradorlik bilan tashkil qilishdir. Bu esa, o‘z navbatida, dars jarayonida turli pedagogik metodlarni to‘g‘ri va samarali uyg‘unlashtirishni talab qiladi. Pedagogik metodlarni uyg‘unlashtirish, ya’ni ularni bir-birini to‘ldiradigan tarzda kombinatsiyalash orqali o‘quvchilarning bilim olishga bo‘lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlashga yo‘naltirish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi.

Mazkur vazifalarni bajarish uchun, eng avvalo, ta’lim metodlari va usullarini takomillashtirish, yangilarini izlab topish va ulardan samarali foydalanishni amalga oshirish muhim ahamiyatga egadir. Innovatsion yondashuvlar pedagogik metodlar uyg‘unligiga yangicha nazar bilan qarashga zamin yaratadi. An’anaviy dars berish usullari bilan zamonaviy innovatsion texnologiyalarni uyg‘un holda qo‘llash orqali ta’lim sifati oshadi. Masalan, muammoli ta’lim, interaktiv usullar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan topshiriqlar, loyiha asosida o‘qitish kabi metodlar o‘zaro to‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lib, o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Metodlar uyg‘unligini ta’minlashda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasi muhim rol o‘ynaydi. U innovatsion yondashuvlarning mohiyatini to‘g‘ri anglab, uni dars jarayoniga moslashtira olishi lozim. Har bir fan va mavzuga mos ravishda metod tanlash, ularni uyg‘unlashtirish, shuningdek o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish o‘qitish jarayonini yanada samaraliroq qiladi.

Didaktikada ta’lim metodlarini bilimlar manbai, didaktik maqsadlar, bilish faoliyatining saviyasi bo‘yicha farqlash mavjud. Ta’lim metodlarini bilish manbalari

bo‘yicha tasniflash sodda jarayon bo‘lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Masalan, taniqli pedagog olimlardan S.I. Perovskiy, Ye.Ya.Golant va boshqalar o‘qitish usullarini tasnif etishda ta’lim manbalarini hisobga olishgan. O‘qituvchi nutqi, ko‘rgazma qurol, darslik hamda qo‘shimcha adabiyotlarni ta’lim manbai sifatida ekanligini O.Roziqov va boshqalar tomonidan tuzilgan “Umumiy didaktika” o‘quv adabiyotida alohida ta’kidlangan. Didaktikada ta’lim jarayonining turli bosqichlarida bajariladigan ishlar mazmunidan kelib chiqib, o‘qitish usullarini tasnif etish g‘oyasi ham mavjud. Masalan, Yu.K.Babanskiy tahriri ostida chiqarishgan o‘quv qo‘llanmasida berilishicha M.A.Danilov, B.P.Yesipovlar o‘qitish usullarini quyidagicha tasnif etgan:

-bilimlarni o‘rganishga oid usullar;
-bilim va malakalarni tadbiq etish usullari;
-ijodiy ishlash usullari;
-bilim va malakalarni mustahkamlash;
-tekshirish usullari.

M.N.Skatkin, I.Ya.Lerner o‘qitish usullarini tasnif etishda o‘quvchilar faoliyati xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni quyidagicha guruhlarga ajratgan: izohli ko‘rgazmali usullar; qayta eslashga oid standart usullar; muammoli bayon usuli; evristik usul; ilmiy izlanish usullari.

M.I.Maxmutov o‘qitish usullarini tasnif etishda ta’lim usullari bilan o‘qish usullarini o‘zaro fikricha: o‘qitish va o‘qish usullari bilan o‘zaro aralashgan holda xabar-umumlashtirish tipidagi usullar, izohli va eslashga oid usullar, ko‘rsatmali-amaliy usullar, izohli rag‘batlantiruvchi usullar, izlanishli usullar, qisman izlanishga oid usullar kabi o‘qitish usullarini paydo qiladi .

Pedagogikada o‘qitish metodlarini tasniflashga yagona yondoshish hozirda mavjud emas. Didaktikada ta’lim metodlarini quyidagicha farqlashlar keng tarqalgan: bilimlar manbai yuzasidan farqlashlar Lordkipanidze S.O., YE.YA.Golant, didaktik maqsadlar bo‘yicha farqlashlar B.P.Yesipov, bilish faoliyatining saviyasi bo‘yicha farqlashlar I.YA. Lerner, M.N.Skatkin, M.I.Maxmutov .

Metodlarning binar sxemalari va ularni uch o‘lchovli farqlash ham mavjud. Ana shu tasniflashlarning har qaysisida afzalliklar hamda kamchiliklar mavjuddir. Ular adabiyotlarda ham o‘rganilib chiqilgan. Ta’lim metodlarini bilish manbalari bo‘yicha tasniflash ancha sodda sanalib, uni dars jarayonlarida ko‘p targ‘ib qilinadi. Bu belgi yuzasidan metodlar quyidagi uch guruhga ajratiladi:

1. Og‘zaki metodlar (ma’lumotni o‘quvchiga so‘z bilan yetkazish, suhbat orqali, kitoblar va darsliklar orqali, adabiyotlarni o‘rganish orqali).
2. Ko‘rsatmalik metodlari (dars jarayonida taqdimotlar, kuzatishlar, rasmlar).
3. Amaliy ishlar metodlari (mashq, laboratoriya tajribalari, amaliy va tajriba ishlari).

Bularning hammasi qanchadir darajada shartli sanaladi, sababi bu metodlarning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lganidan, ularni har vaqt ham cheklash nojoizdir. Har bir ta’lim metodining o‘z vazifalari mavjud.

Adabiyotlarda ta’lim metodlarining rag‘batlantiruvchi, ta’limiy, tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalarini ko‘rishimiz mumkin. O‘qituvchi va murabbiylar dars jarayonlariga tayyorgarlikda va uning uchun eng samarali hamda

muvofiq keluvchi metodlarni va usullarni tanlay olishda ana shu metodlarning bajarilishi mumkinligini va ularning tuzulishini inobatga olgan holda, rag‘batlantirish, ta’limiy-tarbiyaviy hamda ulug‘likka yetaklovchi maqsad va vazifalarni rivojlantiruvchini hamda uyg’otuvchini murabbiy deb ataymiz.

I. Y. Lerner va M. N. Skatkin ta’lim metodlarini tushuntirish, rasmlar metodi, reproduktiv metod, muammoli bayon qilish metodi, qisman izlanish metodi, tadqiqot metodlari-kabi tasniflashadi.

Danilov M.A. va Yesipov B.P.ning tasniflashi kO‘plab xildagi o‘quv jarayonlarida bajarilishi kerak bO‘lgan maqsad hamda vazifalarga bog‘liq hisoblanadi.

1. Bilimlarni hikoya—tushuntirish, ma’ruza, suhbatlar, ko‘rsatmali qo‘llanmalarni namoyish etish orqali bayon qilanadi.

2. O‘quvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘stirishda, mashqlarni shakllantirish va amaliy ishlarni shakllantirish orqali rivojlantiriladi.

3. Bilim, ko‘nikma va malakalarni - joriy kuzatishlar, og‘zaki so‘rash, yozma va amaliy nazorat ishlari yordamida tekshirilib boriladi.

Perovskiy S.I. va Golyand YE.YA. ham ta’lim metodlarini faol va nofaol metodlarga ajratadi: — agarda o‘quvchilar mustaqil ravishda ishlasa, faol metodlar (laboratoriya metodi, kitob bilan ishlash) hisoblanadi; — agar o‘quvchilar o‘qituvchini faqat tinglab eshitsa, passiv metodlar (hikoya, ma’ruza, tushuntirish, namoyish qilish metodi, ekskursiya) kabi tasniflaydi.

Shuningdek, zamonaviy ta’limda STEAM yondashuvi, teskari o‘qitish (flipped learning), raqamli platformalar asosidagi darslar, gamifikatsiya (o‘yinlashtirish) kabi usullar metodik uyg‘unlikka asoslangan holda qo‘llanilganda, o‘quvchilarni darsga faol jalb qilish va ularning ta’lim motivatsiyasini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik metodlarni uyg‘unlashtirishda innovatsion yondashuvlardan samarali foydalanish ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. O‘qituvchi metodlarni zamonaviy yondashuvlar bilan integratsiyalab, har bir darsni interaktiv, qiziqarli va maqsadga muvofiq tashkil etgan taqdirda, ta’lim sifatida sezilarli o‘sish kuzatiladi. Shu bois, metodik uyg‘unlikni innovatsion fikrlash asosida tashkil qilish har bir pedagogning ustuvor vazifasiga aylanishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 2022

2. Karimov N., Usmonova, S. Zamonaviy darsda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi. Pedagogika va psixologiya, 2021. 3(57), 45–50.

3. Sultonova Z. Ta’limda integratsiyalashgan yondashuvlar: nazariy va amaliy jihatlar. O‘zbekistonda pedagogik izlanishlar, 2023. 2(14), 21–28.

4. Jononov A. Pedagogik mahorat va innovatsion yondashuvlar. Samarqand: Registon nashriyoti. 2020

5. Yusupova M. Raqamli ta’lim muhitida metodik integratsiya: muammo va yechimlar. Axborot texnologiyalari va ta’lim, 2021. 4(8), 31–35.

6. Shodmonov Sh., To‘xtasinova, N. O‘qitishda STEAM yondashuvining afzalliklari. Innovatsion pedagogika, 2022. 1(3), 60–65.